

**Paxtakor tumani Axborot- kutubxona markazi**  
**Axborot – bibliografiya xizmati**

**O`zbekiston xalq artisti, raqosa, baletmeyster, o`zbek ommaviy  
sahna raqsining asoschisi Mukarram Turg`unboyeva (1913-1978)  
tavalludining**

**110 yilligiga bag`ishlangan**

# **Eslatma**



**Paxtakor-2023-y**

## Tarjimai hol

Mukarram Turg'unboyeva - SSSR xalq artisti, O'zbekistonning atoqli raqqosasi, Davlat mukofoti laureati, baletmeyster, ommaviy o'zbek sahna raqsi tashkilotchisi, Davlatda xizmat ko'rsatgan "Bahor" nomli mashhur xalq raqsi ansamlining asoschisi, Toshkent xoreografiya bilim yurtida ta'lif beriluvchi "Doyra daryo" nomli xoreografiya mahoratini o'rgatuvchi o'zbek raqs mактабining tashkiliy mualliflaridan biri. Mukarram Turg'unboyeva 1913 yil bahorda tug'ilgan. Tug'ilgan kunining aniq sanasini bilolmay, teatrga ishga kirgan kuni, ya'ni 16 sentabrni o'zining tug'ilgan kuni deb hisoblashga qaror qilgan. Biroq, keyinroq Mukarrama tug'ilgan kuni uchun bahorning qoq gullagan pallasi - 31 may kunini tanlagan. Mukarram ota-onasini eslay olmagan, zero, ular barvaqt

olamdan o'tgan, u dodasi va buvisinigina eslay olgan. 1927 yil mактабni bitirib, pedagogika texnikumiga o'qishga kirgan, 1929 yil esa ham aktrisa, ham O'zbek Davlat musiqali teatr studiyasi talabasiga aylanadi, umrining qolgan yillarini san'atga bag'ishlaydi.

1929 yildan 1933 yilgacha Turg'unboyeva musiqali teatr studisida milliy raqsning atoqli pedagogi Usta Olim Komilov, mohir raqqos va artist Yusup Qiziq Shakarjonov, farg'onacha xoreografiya bilimdonlari, shuningdek, o'zbek raqsi hamda ovrupacha mumtoz raqs qonun-qoidalari, milliy-sahna va estrada raqsi bo'yicha keng bilimlarni egallagan Tamara Xonim kabi ustozlardan saboq olgan. Rossiya'dagi taniqli baletmeyster va pedagog Konstantin Bek studiyada ovrupa mumtoz raqsidan dars bergan, keyinroq, Mukarram mashhur peterburglik baletning sobiq prima-balerinasi Yekaterina Obuxova, iqtidorli baletmeyster-yangilik olib kirgan inson Ilya Arbatov, Aleksandr Tomskiy va Pavel Yorkinlar boshchilik qilgan baletda faoliyat yuritgan.

Mukarram studiyada solfedjiordan dars bergan pedagog Sayanovaning qo'lida qo'shiq kuylashni o'rgangan. Mahoratli bilimlar majmui Mukarramaga milliy raqs harakatlarini o'rganib, nafas olish usullari, mushak-bo'g'imlarning ishlashi kabi ijodiy jarayonning barcha tayyorlov holatlarini yashirishni o'rgandiki, tomoshabinlar tana harakatini ko'rmay, faqat qalb harakatlanishini qabul qilishardi.

1929 yil Mukarram Turg'unboyeva musiqali teatr artisti Xoldorov Nizom Xoldorovichga turmushga chiqdi, 1934 yil esa ularning farzandi Xoldorov Telman Nizomovich dunyoga keldi. Mukarramaning turmush o'rtog'i Nizom Xoldorov urushga ketadi va tez orada urushdan qoraxat keladi. Ammo u o'lmagan bo'ladi va urushdan qaytib keladi.

Mukarram o'zbek xoreografiyasining oltin fondiga kiritilgan "Tanoval", "Katta o'yin", "Jonon", "Pilla", "Paxta" kabi o'zbek milliy raqsining asoschisi va ijrochisi hisoblanadi. Uning har bir chiqishi chinakam doston edi. Bu haqda taniqli san'at va madaniyat arbollarining u haqdagi fikrlari ham tasdiqlaydi.

1957 yil Mukarram Turg'unboyeva "Bahor" milliy raqs ansamblini yaratadi. 1960 yil "Bahor" O'zbekiston Davlat milliy raqs ansamliga aylanadi. Ansamblning tashkil etilish kuniga



Turg'unboyeva konsert chiqishlari va opera spektakllari uchun ko'plab ommaviy raqslarni sahnalashtirishga ulguradi.

1934 - 1957 yillar O'zbek respublika balet maktabining pedagogi (hozirgi Toshkent davlat oliy xoreografiya va milliy raqs oliygohi). Uning o'quvchilari orasida G. Izmaylova, K. Mirkarimova, Gulnora Mavayeva, Ra'no Nizomova, Valentina Romanova, Tamara Yunusova, Ravshanoy Sharipova, Ma'mura Ergasheva, Nasiba Madrahimova, O'g'iloy Muhamedova kabi yetuk san'atkorlar vujudga kelgan.

Mukarram Turg'unboyeva 1978 yil 26 noyabr kuni vafot etgan. Toshkent shahridagi Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan.

### Ijodiy ishlari

#### Balet partiyalari

- \* 1939 - Shohida F. S. Tal - Shohida
- \* 1940 - Gulandon Ye. G. Brusilovskiy - Gulandon
- \* 1945 - Bog'chasarov favorasi B. V. Asafeva - Zarema
- \* 1946 - Oqbilak S. N. Vasilenko - Oqbilak



#### Raqs kompozitsiyalari

- \* "Kutish"
- \* "Jasur qiz"
- \* "Namanganning olmasi"

#### Mukofot va unvonlari

- \* Ikkinci darajali Stalin mukofoti (1946) - o'zbek raslari ijrosidagi yetuk natijalari uchun
- \* Uchinchi darajali Stalin mukofoti (1951) - T. S. Sodiqov va R. M. Glierlarning "Gyulsara" opera spektaklidagi ishtiroki uchun
- \* SSSR Davlat mukofoti (1973)
- \* Lenin komsomoli mukofoti (1967)
- \* Hamza nomidagi O'zbek SSR Davlat mukofoti (1967)
- \* Lenin ordeni (1951)
- \* Ikkita Qizil Mehnat nishoni ordeni (1937, 1950)
- \* Ikkita "Znak Pochyota" ordeni (1957, 1965)
- \* "Mehnat jasorati" medali (1941)
- \* "Mehnat a'lochisi" medali (1945)
- \* "1941-1945 yillar Ikkinci Jahon urushidagi jasoratli mehnati uchun" medali (1945)
- \* "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni (2001) (o'limidan so'ng)
- \* O'zbek SSR xalq artisti (1937)
- \* SSSR xalq artisti (1959)

## **Poytaxtimizda O‘zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg‘unboyevaning 110 yillik yubileyiga bag‘ishlab press-konferensiya tashkil etildi.**

Milliy raqs san’atimiz ustoz Mukarrama Turg‘unboyeva nomi bilan uzviy bog‘liqdir. Mukarrama Turg‘unboyeva 1913 yil 31 may kuni Farg‘ona vodiysida tavallud topgan. Ustoz san’atkor juda boy va ajoyib ijodiy hayot yo‘lini bosib o‘tgan.

1957 yilda tuzilgan «Bahor» raqs ansambl O‘zbekiston dong‘ini butun dunyoga taratdi va dunyoning eng zo‘r raqs jamoalari qatoridan joy oldi. Bastakor Muhammadjon Mirzayev bilan birga yaratilgan «Bahor valsi» raqsi «Bahor» ansamblining o‘ziga xos ijodiy ramziga aylanadi va oltin meros turkumiga kiruvchi mangu asarlar qatoridan joy oladi. Mukarrama Turg‘unboyeva tomonidan yaratilgan «Tanova», «Munojot» kabi raqs san’ati durdonalari XX asrning nodir raqlari turkumiga kirdi.

Uzoq davom etgan ijodiy tanaffusdan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 4 fevraldagagi tegishli qaroriga binoan «Bahor» ansambl qayta yaratildi. Ansabl qayta tiklangandan so‘ng, o‘zining ilk konsert dasturini 2021 yil 14 va 15 dekabr kunlari xalqimiz e’tiboriga taqdim etdi. So‘ng Tojikiston, Ozarbayjon, Turkiya, Fransiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Italiya va Birlashgan Arab Amirligi sahna maydonlarida o‘zining konsert dasturlari bilan chiqdi.

Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi «Bahor» davlat raqs ansambl barcha davlat tadbirdalarida, konsertlar, musiqiy dasturlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Press-konferensiyada ana shular haqida so‘z yuritildi. Mukarrama Turg‘unboyeva hayoti va ijodiga bag‘ishlangan qisqa videorolik namoyish etildi. Unda o‘zbek zamini farzandining katta sahna sari qo‘ygan ilk qadamlari, uning boy va betakror ijodiy hayoti aks ettirilgan.

Press-konferensiyada «Bahor» ansamblining oxirgi uch yillik ijodi va tez orada bo‘lib o‘tadigan Mukarrama Turg‘unboyevaning yubileyiga tayyorgarlik jarayoni, xalqaro ilmiy konferensiya, chet ellik ansambllar ishtirokidagi konsert dasturi, raqqosa ijodiga bag‘ishlangan hujjatli film va kitob nashri haqida batafsil ma’lumotlar berildi.

Raqqosabegim virtual ko`rgazmasi


Ushbu electron ko`rgazma buyuk iste`dod egasi O`zbekiston xalq artisti mukkaram Turg‘unboyeva tavalludining 105 yilligiga bag‘ishlangan





Каримова, Р. Танцы ансамбля «Бахор» / Р. Каримова; Под ред. М. Х. Кадырова. – Ташкент: Изд. лит и искусства, 1979. – 340 с.: ил., нот.

Книга посвящена народной артистке Узбекистана, бессмертному художественному руководителю Государственного ансамбля “Бахор” – Мукаррам Тургунбаевой.





Авдеева, Л. Танец Мукаррам Тургунбаевой: фотоальбом. – Ташкент: Издательство литературы и искусства. – 1989. – 200 с.: Тит. л. и текст парал. на рус. и узб. яз.

Мукаррам Тургунбаева бутун умрини рақс санъатига баҳшида қилган буюк истеъодд эгаси. Унинг рақсга бўлған меҳр-муҳаббати ўзидан ҳам кучлироқ эди. У рақс билан яшаркан, қалбида борини, умри бўйи нимагаки эришган бўлса, барчасини рақсларига мужассамлаб, одамларга баҳш этди.


[Жамилова, Г. “Ҳар бир рақс – спектакль”](#) / Г. Жамилова, Ф. Низомиддинова: Суҳбатни Ў. Мухамедова тайёrlаган // Театр. – 2013. – № 1. – Б. 16-17.

Ўзбекистон халк артисти, машхур раққоса Мукаррама Тургунбоева миллий санъатимизнинг том маънодаги сўнмас юлдузларидан бири эди. Мақолада устоз билан ҳамнафас бўлған, ундан сабоқ олган шоғирдларидан – Ўзбекистон халк артисти Гулчехра Жамилова ва Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Флорида Низомиддиноваларнинг хотиралари берилган.



[Тўлахўжаева, М. Афсонага айланган аёл](#) / М. Тўлахўжаева // Театр. – 2013. – № 3. – Б. 14-15.

Мукаррама Тургунбоева ҳаёти ва ижодига бағишинган ушбу мақола ўзининг юксак маҳорати, қизғин ҳаёти билан санъат тарихида ёрқин из қолдирган афсонавий сиймолардан бири Мукаррама Тургунбоева ҳақида баён қиласди.




Тұлахұжаева, М. Афсонага айланған аёл / М. Тұлахұжаева // Театр. – 2013. – № 3. – б. 14-15.

Мұкаррама Түргұнбоеев ҳәёти өз ижодига бағишиләнгән ушбу мақола ўзининг юксак маҳораты, қызғын ҳәёти билан санъат тарихида ёрқын из қолдирған афсонавий сиымолардан бири Мұкаррама Түргұнбоеев ҳақида баён қулади.

Маҳкамова, М. Баҳордан қолган мерос / М.Маҳкамова // Жаҳон адабиёти. – 2013. – № 5. – Б. 194-195.

Ўзбекистонни бутун дунёга танилган "Баҳор" ансамблининг ташкилотчиси ва раҳбари М. Турғунбоевга ўлмас рақслар яратди. "Тановэр" рақси нафақат ҳалқимизнинг қалб кўридан, балки ўзбек санъати ҳазинасидан мустаҳкам жой зегаллади.



Аманмурадова, С. Танец длинною в жизнь / С. Аманмурадова // Общественное мнение. Права человека. - 2013. - №1. - стр. 121-125.

К 100-летию со дня рождения Народной артистки Узбекистана Мукаррам Тургунбаевой.

Акбаров, Х. Ракс ва мусика бирлиги / X. Акбаров // Маърифат. – 2009. – 27 май. – Б. 15.

Мукаррама Түргунбоева рақсларину күргөн киши унинг назокатли ҳаракатларидан сөхрланиб, рақсларину мароқ билан томоша қиласы. Устозининг рақслари, балеттейстер сифатида топтаган ечимлари фақат ёзув столида, "Баҳор" концерт залининг ойнасанда мәшк залыда, саңғадағына эмас, анча олдин шаклланған борганды. Ушбу мақолада М. Түргунбоеваниң рақсга бүлдеган мөхри хакида сүз кетады.



Насриддинов, Б. Раккосабегим / Б. Насриддинов // Халқ сүзи. – 2001. – 26 дек. – Б. 4.

М. Түргунбоевга рақс санъатининг султони. *Машхур "Тановар"* эса – унинг гаевҳар този. – "Тановар"ни билмаган, унга рақсга тушмаган ўзбек аёли бўлмаса керак... Бу ажсни ижро этиб, томошабинлар олқишини олган моҳир санъаткорлар кам эмас. Лекин фақат Мукаррамахон "Танавор" ижросида "рақс султони" деган, халқнинг ўзи қашф этган муборак унвонга сазовор бўлганди.



**Құшымча маълумот:** Мұқаррама Тұрғұнбоеваның расмий сайты [turgunbaeva.ru](http://turgunbaeva.ru)

июнь 2018 год

\*\*\*

Turg'unboyeva Mukarrama haqida:

O'zining yuksak mahorati, qizg'in hayatı bilan san'at tarixida yorqin iz qoldirgan afsonaviy siymolardan biri Mukarrama Turg'unboyevadir. "Bahor" ansamblining tashkilotchisi, mohir raqqosa, mehribon ustoz, qalbi daryo inson Mukarrama Turg'unboyeva "Bahor" ansamblini tashkil etibgina qolmay, unga 20 yildan ortiq davr mobaynida rahbarlik qildi, bor mehrini, qalb ko'rini, umrini baxshida etdi.

Tarjimai hol

Jahon san'atida mashhur siymolar oz emas. Biroq maktab yaratib ketgan san'atkorlar barmoq bilan sanarlidir. Mukarrama Turg'unboyeva - o'zbek raqs san'atida o'zining maktabini yarata olgan sara san'atkorlardan biridir.

Sahnaga chiqqanida 16 yoshda bo'lган Mukarrama raqs san'ati uning taqdiriga aylanganini yurakdan anglab yetgandi. U raqs sirlarini qunt bilan o'rganishga kirishdi. Bu borada unga an'anaviy san'atimizning piri ustozlari Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonova, Otaxo'ja raqqoslar yaqindan yordam berdilar. Ustozlari san'atidan bahramand bo'lган raqqosa taqlid yo'lidan bormay, o'z uslubini yaratishga intildi.

U yaratgan "Tanovar", "Jonon", "Pilla", "Munojot" singari raqslarda umumlashma poetik obraz yaratishga intilish bor edi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Mukarrama Turg'unboyeva raqslarida quruq taxnika emas, har bir harakatning ma'no va mazmuni, o'sha davr ruhiyati aks etib turadi. Tomoshabinga nimanidir "so'zlayotgandek", biron-bir fikrni ifodalayotgandek edi. Aniqrog'i, har bir harakatning o'z "so'zi" bor edi. Raqqosalarning qo'l va oyoq harakatlari, yuzdagи nim tabassumi, yoqimli va hayoli imo-ishoralarining barida fikrlar uyg'unligi yotardi.

Ular juda oddiy, sokin his-tuyg'ular ila ijro etilardi. Xalqimizning qalb ko'ridan joy olgan birgina "Tanovar"ni eslashning o'zi kifoya, "Tanovar" - raqs dostoni. Bu raqs juda oddiy va yengil harakatlardan tashkil topganga o'xshasa-da, undagi lirik qahramonning ruhiy olami, inja his-tuyg'ulari, boy qalbi, nozik tebranishlari barchani maftun etib kelgan. U ham mazmunan, ham shaklan, ham ijro jihatidan boshqa raqslardan ajralib turadi. "Har bir ijodkor san'atining jilg'asi hisoblanadigan ixtirosi bo'ladi, - deb yozgan edi atoqli shoiramiz Zulfiya. Mukarramaxonimning ajoyib asarlari bor, lekin bu san'atkor ijodining, menin nazarimda jilg'asi "Tanovar"dir. "Tanovar"ni hech kim, hech qachon, hech

qayerda Mukarramaxonimdek latofat va nazokat, mahorat va dardli harorat bilan ijro etmagan".

"U yaratgan va asos solgan matabning xususiyati shundan iborat ediki, - deb yozadi san'atshunoslik fanlari doktori Muhsin Qodirov, - u bir vaqtning o'zida raqs san'atining uchta sohasi bo'yicha ish olib bordi. Birinchisi - raqs ijrochiligi, ikkinchisi - yangi raqs yaratish, uchinchisi - yosh raqqoslarni tarbiyalab voyaga yetkazish edi. Mukarrama Turg'unboyevaning "Bahor" raqs ansambli dasturlarida ko'p yillar davomida ijro etib kelingan raqlarini uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Biri xalq orasida keng yoyilgan oddiy o'yinlar negizida yaratilgan raqlar ("Andijon polkasi", "Namanganning olmasi", "Besh qarsak", "Toshkent piyolasi", "Samarqand bahori") bo'lsa, ikkinchisi, mumtoz o'zbek raqlarini ommaviy va zamonaviy asosida qayta tiklashga e'tibor qaratdi.


Chunonchi, u o'z qizlari bilan "Katta o'yin", "Zang", "Rog", "Sokinoma", kabi raqlarga yangi hayot bag'ishladi. Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidan ilhomlanib yaratgan "Yetti go'zal" raqsi ham o'zbek mumtoz raqs san'atiga mansubdir. U nafaqat o'zbek milliy raqlarini, balki jahon raqs san'ati namunalarini sahnaga olib chiqishga muvaffaq bo'ldi".

Mukarrama opa o'zining "Bahor"i bilan dunyo kezdi. Undan juda katta madaniy-ma'naviy meros qoldi. Bu xalq orasiga, ongi shuuriga singib ketgan bir-biridan go'zal va jozibali raqlardir. Ularning har birini shovullab oqayotgan daryoga qiyoslash, mahzun taralayotgan qo'shiqqa mngzash mumkin. Ularning har birida o'zbek ayolining qalbi, dardi, orzu-armonlari, shodligiyu quvonchi, nafosati va nazokati, baxti va qudrati manaman deb bo'y ko'rsatib turadi. Shu bilan birga "Bahor"dan qolgan bu boy merosda Mukarrama Turg'unboyevaning ovozi, nafasi, yurak harorati sezilib turadi.

"Tanovar" kuyi yangrashi bilan sahnaga mayda qadamlar bilan, yuzini ro'mol bilan yashirib, uyatdan ko'zlarini olib qochayotgan nazokat va fasohatli kuyga mos xirom aylayotgan hassos san'atkor Mukarrama Turg'unbayeva chiqib kelayotgandek tuyuladi. Shuning o'ziyoq uning nomi va u qoldirgan raqlarning umri boqiyligidan dalolatdir.

**1997 yil 8 yanvar** - Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi «O'zbekraqs» ijodiy birlashmasi tashkil topdi.

Mustaqillik yillarda milliy raqs va balet hayotida yangi davr boshlandi. 1997 yil 8 yanvarda Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi «O'zbekraqs» ijodiy birlashmasi tashkil topdi, birlashma qoshida maxsus jamg'arma tuzildi, xoreografiya bilim yurti negizida esa Toshkent milliy raqs va xoreografiya maktabi barpo etildi. «O'zbekraqs» birlashmasi tarkibiga «Bahor», «Zarafshon», «Lazgi», «Tanavor» raqs teatri, «Ayqulash» nomli katta ansanbllar, «Sumalak (Andijon), «Lola» (Buxoro), «Gulira'no» (Jizzax), «Momogul» (Qashqadaryo), «Navoiy navolari», «Namangan gullari», «Samarqand bahori», «Do'stlik» (Sirdaryo), «Boysun», «Shalola» (Surxondaryo), «Guldasta» (Toshkent viloyati), «Anor», «Kamalak» (Farg'ona), «Xorazm navolari» xalq raqsi hamda folklor- etnografik ansamblar kiritilgan. Milliy raqs ijrochiligi bo'yicha M.Turg'unboyeva nomidagi davlat mukofoti belgilandi. Har yili bahorda M.Turg'unboyeva nomidagi yosh raqqos(a)larning ko'rik- tanlovi o'tkazilmoqda. Birlashma qoshida raqs merosini saqlash va yoshlarga o'rgatish maqsadida «Mukarrama» studiyasi tashkil etilgan.



Toshkent shaxridagi Mukkarama Turgunboyeva ko`chasi.



**O'zbekiston xalq  
rassomi Bahodir  
Jalolovning Mukkarama  
Turg'unboyeva  
xotirasiga  
bag'ishlangan  
«Raqsning tug'ilishi»  
devoriy surati**



Foydalangan manbalar:internet  
Ulug`bek kutubxonasi ma`lumotlari.

OBPAREL